

SOTSIOLINGVISTIKA SOHASI YANGI YO‘NALISH SIFATIDA

Nuritdinova Rayxona,

FDTU o‘zbek tili va tillarni o‘qitish kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Tilshunoslikda inson omili asosiy o‘ringa chiqishi natijasida sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya kabi “oraliq” fanlar paydo bo‘lib, inson nutqiy faoliyatini mana shunday fanlar yordamida tadqiq etish yuzaga chiqdi.

Kalit so‘zlar: sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya, ijtimoiy omil, lisoniy taraqqiyot.

Аннотация. В результате выдвижения человеческого фактора на первый план в языкознании возникли такие «междисциплинарные» науки, как социолингвистика, этнолингвистика, психолингвистика и лингвокультурология. Исследование речевой деятельности человека стало осуществляться с помощью данных наук.

Ключевые слова: социолингвистика, этнолингвистика, психолингвистика, лингвокультурология, социальный фактор, языковое развитие.

Annotation. As the human factor has become central in linguistics, “interdisciplinary” fields such as sociolinguistics, ethnolinguistics, psycholinguistics, and linguoculturology have emerged. The study of human speech activity is now carried out through these disciplines.

Keywords: sociolinguistics, ethnolinguistics, psycholinguistics, linguoculturology, social factor, linguistic development.

Kirish. Sotsiolingvistika fanining predmeti til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatdir. Olimlar, jumladan, A.Vasilev va S.P.Vasileva mazkur yo‘nalishni integrativ fan deya baholashadi. “Integrativ faoliyat deb (lot.integer– butun) tirik organizmning mavjudlik, taraqqiyot, ta‘limga ega bo‘lishi uchun harakat qilish” hodisasiga aytilsa, “integrativ fan termini bir necha mavjud sohalar zamirida paydo bo‘luvchi yangi yo‘nalish” ga nisbatan qo‘llaniladi. Yangi paydo bo‘luvchi hodisalarni izohlash uchun bir necha fanlar birlashishi, bor imkoniyat darajasida ilmiy tahlil qilishga intilishi nazarda tutiladi. Bu borada sotsiolingvistika ham bir necha fanlarning nazariy bilim hamda amaliy tajribalariga asoslanishi uning shunday baholanishiga sabab bo‘lgan. Masalan, “sof” tilshunoslikda tilning tovush yoki yozma tomoni, sath birliklari va ularning o‘zaro munosabatlari o‘rganilsa, sotsiolingvistikada butun e‘tibor lisonidan insonlar qaysi maqsadda foydalanayotganiga qaratiladi. Muloqotga kirishuvchilar nutqidagi ularning yoshi, ijtimoiy mavqeyi, ta‘lim va tarbiya darajasi, madaniyati, oilaviy muhiti ta‘sirida yuzaga chiquvchi tildagi farqli nomutanosibliklarni o‘rganishni maqsad qilib oladi”. Chunki “Sotsiolingvistika predmeti til va jamiyat o‘rtasidagi muammolarni o‘rganish bo‘lsa, tadqiqot obyekti o‘zgarishlarni o‘zida namoyon qiluvchi lisoniy holatlarni tahlil qilish hisoblanadi”.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqotda sotsiolingvistika til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganuvchi fan sifatida ko‘rib chiqiladi. Ilmiy manbalarda bu yo‘nalish tilshunoslik, etnolingvistika, psixolingvistika va lingvokulturologiya bilan chambarchas bog‘liq ekani ta‘kidlanadi.

Tahlil qilingan adabiyotlarda sotsiolingvistikaning asosiy obyekti nutqiy faoliyat va uni shakllantiruvchi ijtimoiy omillar ekani ko'rsatiladi. Tadqiqotchilar til o'zgarishlarini yosh, jins, ijtimoiy mavqe, ta'lim darajasi hamda kommunikativ vaziyat kabi omillar bilan izohlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot sotsiolingvistika yo'nalishiga oid ilmiy-nazariy manbalarni tahlil qilish asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy va analiz-sintez metodlaridan foydalanildi.

Tavsifiy metod orqali sotsiolingvistikaning asosiy tushunchalari, ijtimoiy omillar va ularning tilga ta'siri yoritildi. Qiyosiy metod yordamida turli olimlarning sotsiolingvistika haqidagi qarashlari solishtirildi.

Shuningdek, analiz va sintez usullari orqali til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ichki va tashqi ijtimoiy omillarning nutqqa ta'siri umumlashtirildi. Natijada sotsiolingvistikaning tilshunoslikdagi o'rni va ahamiyati aniqlab berildi.

Tahlillar va natijalar. XVII asr jahon tilshunosligida sotsiolingvistikaning fan sifatidagi ilk asoslari ko'rina boshladi. Bu masala bo'yicha fanda dastlabki ilmiy ma'lumotlar Ispaniyaning Salamanka universiteti professori Gonsalo de Korreaga tegishli bo'lib, u tilni tadqiq etishda bir qancha jihatlariga e'tibor qaratish kerakligini aytib o'tdi: "Shuni ta'kidlash kerakki, tilning viloyatlardagi lahjalaridan tashqari, ana shu viloyatlar aholisi yoshi, mavqeyi va mulkiga bog'liq ba'zi farqlanishlar mavjud: oddiy odamlar, shaharliklar, muhtaram janob va amaldorlar, tarixchi olim va dehqonlar, ayol hamda erkaklar va hatto kichik bolalar nutqida ham ushbu farqlanishni kuzatishimiz mumkin". Muallif, aslida, tilshunos emas, jamiyatshunos bo'lsa-da, o'sha davridayoq tilni uni shakllantiruvchi shaxs bilan bog'lamay turib to'laqonli anglash mumkin emasligini aniqladi. Darhaqiqat, nutqning ijrochisi bo'lmasa, u hech qachon yuzaga chiqmaydi, natijada til ham mavjud bo'lmaydi [1]. Shu boisdan til vositasida ifodalanayotgan fikrni to'laqonli anglash uchun uni kim kimga, qayerda, qachon, qanday vaziyatda, qaysi maqsad hamda qanday shaklda ifoda etishini inobatga olish juda muhim hisoblanadi. Inson shaxsiyati, darajasi uning nutqida aks etishi qadimdan ma'lum bo'lsa-da, mazkur hodisa tadqiqi bo'yicha alohida izchil yondashuv mavjud emas edi. Keyinchalik lisonni to'laqonli anglash va uning vositasida ifodalanayotgan fikrni ilmiy izohlash, tadqiq va tahlil qilish maqsadida yangi sohalarning paydo bo'lishi, fan olamida inson "men"i bilan bog'langan tilni o'rganish natijasida antroposentrik tilshunoslik vujudga keldi. Antroposentrizm tarkibiga kiruvchi sohalardan biri sotsiolingvistika hisoblanadi. Tilni mazkur yo'nalish nuqtayi nazarisiz o'rganish aslida uni oddiy bir shakliy tuzilmadagina iborat vosita sifatida qarashga olib keldi. Til, avvalo, jamiyat tomonidan hosil qilinganligi bilan xarakterlidir, shu bois ularning birini ikkinchisidan ayro holda anglash mumkin emas [2].

Xorijiy tilni o'zlashtirgan odam ma'lum vaqt davomida mazkur tilda muloqot qilmasa, uni tez fursatda xotirasidan chiqarib qo'yishi tabiiydir. Bu esa inson tili

taraqqiyoti uchun jamiyat zarurligini ko'rsatadi. Ushbu omillar til mavjudligini ta'minlash va uning rivojlanish jarayonida ishtirok etishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Shunday qilib, tilga ta'sir etuvchi turli xil birliklar – ijtimoiy omill sifatida olinadi. Ular shartli ravishda ikki guruhga ajratiladi:

1. Ichki omillar.
2. Tashqi omillar.

Ichki omil sifatida inson yoshi, mavqeyi, madaniyati, millati, ta'lim darajasi, yashash muhiti kabilar tushuniladi. Tashqi omilga esa muloqot shart-sharoiti, so'zlovchi hamda tinglovchi o'rtasidagi munosabat kabilar kiradi. Mazkur omillar nutqga bevosita ta'sir etadi. Xususan, so'zlovchi nutqidagi uning o'ziga bog'liq bo'lmagan o'zgarishlarni o'rganish tilni sotsiologik jihatdan tadqiq etishni vujudga keltirdi. Sotsiolingvistika vazifasi adabiy til va ko'chal tili orasidagi ma'lum umumiylik, ziddiyat hamda farqlarni ilmiy ravishda tahlil qilishdan iboratdir.

Sotsiolingvistika sohasida ijimoiy omill katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy omill atamasi rus tilshunosligida социал фактор, социальный фактор, g'arb tilshunosligida esa variables (o'zgarishlar), social variables (ijtimoiy o'zgarishlar) nomi ostida beriladi [3].

Rus tilshunosi E.V.Kalmikov ijtimoiy omilga alohida to'xtalib, ularni global va xususiy ijtimoiy omil turlariga bo'ladi. Global ijtimoiy omil umumiy o'zgarish hisoblanib, tilning deyarli barcha sathlari: fonetik, leksik-semantik, sintaktik va kam miqdorda bo'lsa-da, morfologik sathning o'zgarishiga olib kelishini, xususiy ijtimoiy omil esa faqatgina muayyan bir sath o'zgarishiga sabab bo'lishini ta'kidlaydi [4]. Bu o'rinda muallif tilga ta'sir etuvchi turli birliklar yangi davlat tizimi tashkil qilinishi, ilm-fan rivoji, kashfiyot hamda ixtirolar paydo bo'lishi natijasida yuzaga chiqishini ta'kidlaydi. Chindan ham, ta'sir birliklari o'z-o'zidan yuzaga chiqmaydi: unga turli xil turtkilar sabab bo'ladi, natijada tilning fonetik, leksik, grammatik sathlari tarkibida bir qator o'zgarishlar paydo bo'ladi. Shu o'rinda sotsiolingvist olim K.Lyusid tilga ta'sir etuvchi omillar tasnifi o'rinli hisoblanadi:

1. Bevosita o'zgarishlar (independent variables).
2. Bilvosita o'zgarishlar (dependent variables).

Bevosita o'zgarishlar (independent variables) tilga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etuvchi omil hisoblanib, o'z ichida: a) sotsiolingvistik omillar; b) asosiy ta'sir omillari; v) psixolingvistik omillar; g) terapevtik omillarga bo'ladi. Muallif sotsiolingvistik omilga yosh, jins; asosiy ta'sir omiliga esa so'zlashuvchilarning ijtimoiy mavqeyi, tashqi ta'sir kabilarni kiritadi. Psixolingvistik omilga esa nutq jarayonida so'zlovchilar bir-birini ko'rgandagi ichki hissiy holati: hayajon, nafrat, muhabbat, rashk, hurmat, bu hislar ta'sirida miyada paydo bo'luvchi o'zgarishlar esa terapevtik omil sifatida olinadi.

Professor Sh.Iskandarova nutqiy odatlarni o'zgarimas belgi, ta'sir etuvchi omillarni esa o'zgaruvchan turga kiritgan [5].

Olim S.Mo'minov esa tilga ta'sir etuvchi birliklar mavjud bo'lishini ta'kidlab, uni shartli ravishda ikki guruhga bo'lgan: ichki hamda tashqi ta'sir birliklari. Ichki ta'sir birliklarida so'zlovchi bilan doimo mavjud bo'lgan belgilar nazarda tutilsa, tashqi ta'sir birliklariga muloqot vaqti, vaziyat, ijtimoiy holatlarni kiritadi [6].

Nutqiy faoliyatdagi tilga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar muhim hisoblanib, ular o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'ladi. O'zgaruvchan ijtimoiy omillarga esa quyidagilar kiradi: Istiqomat makoni. Kommunikantlar istiqomat qilayotgan makonda adabiy tildan farqli oilasi, qishlog'i, shahrida shakllangan nutq elementlari kuzatiladi. Xususan, oilaning tilga ta'sir etish doirasini oladigan bo'lsak, inson bolasi, eng avvalo, mana shu jamiyatning ilk bo'g'inida katta bo'ladi. Shunday ekan, til/nutqning dastlabki paydo bo'lishi va shakllanishi oilada yuz beradi. Odatda, inson tug'ilgandan so'ng 2–3 yoshga to'lib-to'lmay gapira boshlaydi, ana shu paytdayoq tilga ijtimoiy omillar ta'sir eta boshlaydi. Bola nutqi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan olimlar fikricha, nutq shakllanishida ota-ona kasbi ham muhim omil hisoblanadi, chunki farzandning leksik zahirasi oilasida quloqqa chalingan so'zlarni o'zlashtirish natijasida o'ziga xos ravishda shakllanib boradi:

– Ma, marjangga ber! – Qamariddin cho_ntagida bitta yuztalik olib, Asrorga uzatdi (T.Malik. Alvado, bolalik. 24-bet).

Mazkur misolda Qamariddin o'spirin bo'lishiga qaramay, uning nutqida marja so'zi qo'llanadi. Bu so'z jinoyatchilar nutqida qiz bola ma'nosini anglatadi. Ushbu misoldan shuni ko'rishimiz mumkinki, yosh avlod leksikasida sotsiolektdan foydalanish uning ana shu qatlamga mansub ekanligini ifodalaydi. Chindan ham, Qamariddin go'dakligidan bolalar uyida katta bo'lgan, so'ngra jinoyatchilar to'dasiga qo'shilib, o'g'rilik, talonchilik bilan mashg'ul bo'lgan boladir: u yoshligidanoq jinoyatchilar olamida qo'llanuvchi xos so'zlarni eshitib, o'z nutqida qo'llay boshlaydi. Bu esa ta'sir etuvchi omilning inson nutqida eks etishini ifodalaydi.

Xulosa. Ijtimoiy omillar tilda yuz berayotgan jarayonlarni tubdan o'zgartirishga qodir emas, ammo ularsiz ham til taraqqiyoti mavjud bo'lmaydi. Odatda, adabiy tilni belgilashda ma'lum bir jamiyatning ijtimoiy jihatdan yuqori tabaqasi nutqi asos qilib olinadi. Ko'pincha yuqori tabaqa sifatida ziyolilar tili tanlab olinadi, xususan, adabiy til me'yorlarini belgilashda adabiy til bilan muntazam aloqada bo'lgan tabaqa vakillari nutqi tadqiq qilinib, undagi til xususiyatlari umumiyashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Васильев А.Д., Васильева С.П. Актуальные направления развития современной социолингвистики // Вестник Красноярского государственного педагогического университета им. В.П. Астафьева. Филология. Языкознание, 2018. – С.153-160. https://doi.org/10.25146/murojaat_sanasi:26.05.22.
2. Жмуров В.А. Большой толковый словарь терминов по психиатрии. – М.: АПП Джангар, 2010. – 863 с.
3. <http://sociology.niv.ru/doc/dictionary/sociolinguistics/fc/slovar-209-1.htm#zag-681> (murojaat sanasi: 19.03.2022).

4. Крючков В.П. Основы этно и социолингвистики. – М., 2015. – С.29.
5. Швейцер А.Д. Некоторые актуальные проблемы социолингвистики. Предмет социолингвистики и методы социолингвистического анализа // Методическая мозаика (приложение к журналу «Иностранные языки в школе»). – 2006. – № 4. – С.24. <http://naukarus.com/nekotorye-aktualnye-problemysotsiolingvistiki> (murojaat sanasi: 27.03.2022).
6. Степанов Г.В. Типология языковых состояний и ситуаций в странах романской речи. Ч. 1. – М.: Наука, 1976. – С.22.

